

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

YULDASHEV FOZIL TURAPOVICH

**IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA SANOAT
KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH
YO'LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Yuldashev Fozil Turapovich

Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari..... 3

Юлдашев Фозил Турапович

Пути укрепление финансовой устойчивости промышленных предприятий в процессе трансформации экономики..... 31

Yuldashev Fozil Turapovich

Ways to strengthen the financial stability of industrial enterprises in the process of transformation of the economy..... 59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 66

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

YULDASHEV FOZIL TURAPOVICH

**IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA SANOAT
KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH
YO'LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iq2228 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtorreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsu.uz) va «Ziynet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Haydarov O'ral Arzadovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Ismailov Aisber Agzamovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Qurbonov Xayrulla Abduraxulovich iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «8» 11 kuni soat 14⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49. Tel.: (99871) 239-01-49, 239-28-78, faks: (99871) 239-27-23, e-mail: info@tsu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (136 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49. Tel.: (99871) 239-01-49, 239-28-78.


Dissertatsiya avtorreferati 2023-yil «25» 10 kuni tarqatildi.
(2023 yil «21» 10 daqiqa 61 raqamli reestr bayonnomasi).




M.P. Esbov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
a'zosi, i.f.d., professor


U.V. Gafurov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qo'shidagi ilmiy seminar a'zosi, i.f.d.,
professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida bugungi kunda global moliyaviy inqirozlar, COVID-19 pandemiyasining ta'siri, sanoat va tijorat korxonalarining raqobati kuchayishi hamda harbiy mojarolar tufayli notekis iqtisodiy rivojlanish natijasida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda korxonalarining barqarorligini ularning iqtisodiy xavfsizligi uchun asos sifatida baholash yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti "Sanoatni rivojlantirish tashkilotining" (UNIDO) "Sanoat raqobatbardoshligi indeksi" (CIP) ma'lumotlariga ko'ra, global tendensiyalar kuchayib borgan sari, mamlakatlar ularga moslashishi va ulardan strategik foydalanishi kerak ¹. Global tendensiyalardan faqat ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga va ishlab chiqarish sohasini diversifikatsiya qilishga sarmoya kiritgan mamlakatlar sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishni qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil qilish hamda rivojlantirish masalalariga doir ilmiy tadqiqotlar natijalarini e'lon qilib kelmoqda. Shuningdek, Yevrosiyo iqtisodiy Ittifoqida sanoatning barqaror va muvozanatli uzoq muddatli rivojlanishi uchun sharoit yaratish maqsadida 2021-yil 30-aprelda Yevroosiyo iqtisodiy Kengashi Yevroosiyo iqtisodiy Ittifoqida 2025-yilgacha bo'lgan davrda sanoat kooperatsiyasining asosiy yo'nalishlarini va 2035-yilgacha bo'lgan istiqbolni tasdiqladi, bu uchta asosiy vazifani hal qilish, ya'ni sanoat ishlab chiqarishining jadal o'sishini rag'batlantirish, ittifoqdosh ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini oshirish belgilab qo'yildi. Bu esa, xalqaro miqyosda, muntazam ravishda sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini oshirish uchun mavjud moliyaviy muammolarni aniqlash yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikning yetarli emasligi sababli, korxonalar uchun joriy va kelajakdagi investitsiya faoliyatini amalga oshirish hamda moliyaviy ko'rsatkichlar pasayishiga olib kelayotgan muammolarni o'rganish natijasida ularni hal etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarining ishlab chiqilmaganligi mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Sanoat sohasida korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish uchun mavjud moliyaviy muammolarni aniqlovchi, moliyaviy beqarorlikka tahdidlarni kamaytirish va moliyaviy natijalarni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiquvchi moliyaviy holatni baholash va ilg'or xorij tajribalarini joriy etish orqali sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan muammolar mavjudligi tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti va aholi bandligida sanoat korxonalarini juda katta

¹ <https://www.unido.org/sites/ma'lumotlari>

o‘rin tutadi. Bu sohaga zarur sharoit yaratish maqsadida so‘nggi yillarda 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasi tashkil etildi, ularning infratuzilmasiga 10 trillion so‘m yo‘naltirildi. Shuningdek, to‘qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, charm, farmatsevtika, elektr texnikasi tarmoqlarini “drayver”ga aylantirish uchun 3 milliard AQSh dollari miqdorida moliyaviy resurslar ajratildi. Sanoatni xomashyo bilan ta‘minlash uchun geologiya-qidiruv ishlari 3 barobar ko‘paytirilib, 600 tadan ziyod yangi kon aniqlandi. Natijada oxirgi besh yilda sanoat korxonalarini soni 2 barobar ko‘payib, 100 mingtaga yetdi, ishlab chiqarish hajmi 1,4 baravarga ko‘paydi². Shu bilan birga, so‘nggi yillarda sanoat korxonalarini tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, sanoat sohasida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirish va loyihalar mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish hamda uni kuchaytirish, bu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash davlat siyosati darajasidagi muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Shu jihatdan, bugungi kunda sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirish masalalarini keng yoritib berish dolzarb masalaga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston-ning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi, 2019-yil 1-maydagi PQ-4302-son “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari” doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash masalalari I.Mandel, I.Pavlova, N.Danilova, I.Omelchenko, L.Gilyarovskaya, A.Vexoreva, I.Balabanov, A.Sheremet, I.Bakanov, M.Batkovskiy, K.Borodulina³ singari MDH olimlarining ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

² Sh. Mirziyoevning 2023-yil 10-yanvarda Sanoatni rivojlantirish hamda qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash masalalari bo‘yicha chora-tadbirlari muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishidagi ma‘ruzasi

³ Мандел И.Д. Многомерный статистический анализ экономических процессов. – СПб.: Питер, 2009. -318 с. Павлова И.А. Анализ и прогнозирование финансовой устойчивости организации с учетом жизненного цикла на основе интегрального показателя. // Финансы и кредит, 2017 г., 23 (июн). – С. 71-75. Омелченко И.И. Финансово-экономическая стабильность как составная часть организационно-экономической устойчивости предприятий. // Вестник машиностроения. 2017. № 4. С. 65. Гиляровская Л.Т, Вехорева А.А. Анализ и оценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия. – СПб., 2013. С. 13. Данилова Н.Л. Анализ финансовой устойчивости предприятия [Электронный ресурс] // Ассоциация «Открытая наука». Выпуск № 2. 2014. Балабанов И. Т. Основы финансового менеджмента. Как управлять капиталом? / [Текст]: И.Т. Балабанов. – М.: Финансы и статистика, 2014. - 384 с. Шеремет, А.Д. Методика финансового анализа / [Текст]: А.Д. Шеремет, Р.С. Сайфулин. – М.: ИНФРА-М, 2015. Баканов М.И. Методы финансового планирования и

Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar R.Shneidere, Ye.Shoxin, R.Billi, A.Vredin, R.Taffler, R.Higgins, A.Zvika, H.Roi, L.Yaron, K.Rajesh⁴, shuningdek, respublikamiz iqtisodchi olimlari M.Pardayev, T.Malikov, N.Haydarov, M.Eshov, A.Burxanov M.Raximov, D.Zaynalov, T.Sattarov, E.Akramov, B.Xakimov, U.Xolmirzayev, Z.Axrorov, Sh.Jalilov⁵ ning ilmiy ishlarida sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirish masalalarining nazariy va ilmiy-metodologik asoslarining ayrim jihatlari o'rganilgan. Mazkur ilmiy ishlarda sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashni rivojlantirish yo'llari kompleks tarzda o'rganilmagan.

Shu bois, sanoat korxonalarini rivojlantirish va samarali boshqarishning ahamiyati yuqoriligi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi, sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha jahon amaliyotida ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olish va tahlil qilish, ularning nazariy-metodologik masalalarini takomillashtirish asosida ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozim. Ushbu dolzarb masalalarning hal etilishi dissertatsiya mavzusini tanlash, uning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy ishlari rejasining "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashni rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar

прогнозирования на предприятиях / О. А. Лаенко // Вестник Прикамского социального института. – 2016. – № 2. – С. 52-55. Батковский, М. А. Методологические основы анализа финансовой устойчивости предприятий / М.А. Батковский. – Финансы и учет: современная теория, методология и практика: сб. науч. трудов по материалам I международной науч.-практ. конференции 30.06.16 г. – М.: НОО «Профессиональная наука», 2016. – С. 68–78. – ISBN 978-5-00-005963-8. Бородулина К.Б. Анализ методов оценки финансовой устойчивости и платежеспособности предприятия. // Вестник Марийского государственного университета. – 2016. – № 1. – С. 15.

⁴ Shneidere, R. (2004) Financial methods historical development and implementation in enterprises solvency prediction. Riga: LU, (412 p), Шохин Е.И. Финансовый менеджмент: учеб. 4-е изд. – М.: КноРус, 2016. – С. 203–218., Billi R.M., Vredin A. Monetary Policy and Financial Stability – A simple story. Sveriges Riksbank Economic Review, 2014, vol. 2, pp. 7–22. Taffler, R. (1982) Forecasting Company Failure in the UK Using Discriminant Analysis and Financial Ratio Data. Journal of the Royal Statistical Society. Series A, Vol. 145, No. 3, (pp. 342-358), Higgins, R. S. 2007. Finansovyy analiz: instrumenty dlja prinjatija biznes-reshenij [Financial Analysis: Tools for Making Business Decisions]. I.D. Vil'jams., Zvika Afik, Roi Haim, Yaron Laha. Advance notice labor conflicts and firm value – An event study analysis on Israeli companies // Finance Research Letters. Available online 8 December 2018., Rajesh Kumar. Perspectives on value and valuation. Valuation: Theories and Concepts. Elsevier. Book, 2016. –p.4.

⁵ Pardayev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi, Sano-standart. – T., 2014. 336 bet; Malikov T.S., Haydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2009.-556 b.; Eshov M.P. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash – korxonalar qiyamatini oshirishning asosiy omili. // Экономические науки, 2019 № 5., Burxanov A.U. Sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini baholash usuli. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №6, noyabr-dekabr, 2018 yil. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2013. – 392-b., Zaynalov D., Sattarov T. Проблемы обеспечения финансовой стабильности предприятий. Монография. – Т.: Shark, 2011.; Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. – Т.: Moliya, 2003. 64-85-b. \$ Xakimov B., Xolmirzayev U. Pul mablag'lari hisobi va tahlilini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish. // Xalqaro moliya va hisob. № 1, fevral, 2020 yil.; Axrorov Z.O., Jalilov Sh. Korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari. Risola. – Samarqand: SamISI, 2017. – 27 b.

ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat korxonalarida moliyaviy munosabatlarning umumiy tavsifi, nazariy va funksional asoslarini o'rganish;

sanoat korxonalarini moliyasini tashkil etish va korxonalarining moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqishning me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish;

sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zarurligi, iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o'rganish;

sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashning hozirgi holatini tahlil qilish;

sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini rivojlantirish vazifalarini e'tiborga olgan holda ekonometrik tahlil qilish;

sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sanoat korxonalarini, jumladan "O'z kimyo sanoati" AJ tarkibiga kiruvchi "Sharq'uniko'mir" AJ korxonasi moliyaviy faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashni rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, induksiya, deduksiya, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarining asosiy faoliyat ixtisosligiga muvofiq bo'lmagan va foydalanilmayotgan aktivlarni tegishli davlat mulkini boshqarish idoralari tasarrufiga o'tkazish orqali korxonalar ustav kapitalidagi davlat hamda xo'jalik jamiyatlari ulushini kamaytirish asosida moliyaviy barqarorligini oshirish taklifi asoslangan;

sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini risklarni kompleks dekompozitsiyalash asosida boshqarish hamda sanoat korxonalarida resurslar sarf-xarajatlarini differentsiyalash orqali moliyaviy barqarorligini oshirish asoslangan;

talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishga qaratilgan loyihalarning marketing tadqiqotlari, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, xorijiy mutaxassislar jalb qilish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning bir qismini Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish taklifi asoslangan;

"Sharq'uniko'mir" aksiyadorlik jamiyati iqtisodiy faoliyatining uzoq muddatli tendensiyalari asosida moliyaviy barqarorlik holatining 2027 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashni rivojlantirishning ahamiyati va muhimlik darajasi asoslab berilgan;

sanoat korxonalarini moliyasini boshqarishning hozirgi holati tahlili o'rganib chiqilgan va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili asosida ularda moliyaviy mablag'larni jalb etish yo'llari asoslab berilgan;

sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan xorij tajribasini mamlakatimiz sanoat korxonalari faoliyatida qo'llash tartibi o'rganilib chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi bilan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflardan "O'zkimyosanoat" AJ tarkibiga kiruvchi "Sharg'unko'mir" AJ korxonasida moliyaviy barqarorlikni oshirishga oid nazariy-metodologik va uslubiy yo'nalishlar shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashni rivojlantirish bo'yicha olingan xulosa va nazariy bilimlardan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, "O'zkimyosanoat" AJ tarkibiga kiruvchi "Sharg'unko'mir" AJ korxonasida, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining o'quv dasturlari, o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni rivojlantirish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarining asosiy faoliyat ixtisosligiga muvofiq bo'lmagan va foydalanilmayotgan aktivlarni tegishli davlat mulkini boshqarish idoralari tasarrufiga o'tkazish orqali korxonalar ustav kapitalidagi davlat hamda xo'jalik jamiyatlari ulushini kamaytirish asosida moliyaviy barqarorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi 266-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar aktivlaridan samarali foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida e'tiborga olingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 19-sentabrdagi 03/26-17/4973-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida respublikadagi davlat ishtirokidagi sanoat korxonalari, jumladan, "O'zkimyosanoat" AJ tarkibiga kiruvchi "Sharg'unko'mir" AJda asosiy faoliyat ixtisosligiga muvofiq bo'lmagan va foydalanilmayotgan aktivlarni hisobdan chiqarish orqali korxonalar ustav kapitalidagi davlat hamda xo'jalik jamiyatlari ulushini kamaytirish asosida moliyaviy barqarorligini oshirish imkoni yaratilgan;

sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini risklarni kompleks dekompozitsiyalash asosida boshqarish hamda sanoat korxonalarida resurslar sarf-xarajatlarini differentsiyalash orqali moliyaviy barqarorligini oshirish

taklifi “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyati faoliyatida qo‘llanilgan (“Sharg‘unko‘mir” AJning 2023-yil 14-martdagi 01-302-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada moliyaviy risklar kompleks tarzda dekompozitsiyalanib, yangi moliyaviy boshqarish tizimi yaratilgan, korxonaning resurslar sarf-xarajatlarini differentsiyalash orqali uning sof foydasi 2020-yilda 107605,0 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yil yakunlariga ko‘ra 4 mln. 523105,0 so‘mni tashkil etgan yoki 4 mln. 415500 so‘mga oshishiga erishilgan;

talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga qaratilgan loyihalarning marketing tadqiqotlari, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, xorijiy mutaxassislar jalb qilish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sertifikatlash bilan bog‘liq xarajatlarning bir qismini Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida e‘tiborga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining (O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 19-sentabrdagi 03/26-17/4973-son ma‘lumotnomasi). Buning natijasida, respublikadagi davlat ishtirokidagi sanoat korxonalari, jumladan, “O‘zkimyosanoat” AJ tarkibiga kiruvchi “Sharg‘unko‘mir” AJ da ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga moliyaviy barqarorligini ta‘minlash imkoni yaratilgan;

“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyati iqtisodiy faoliyatining uzoq muddatli tendensiyalari asosida moliyaviy barqarorlik holatining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanish dasturlarini shakllantirishda foydalanilgan (“Sharg‘unko‘mir” AJning 2023-yil 14-martdagi 01-302-sonli ma‘lumotnomasi). Buning natijasida aksiyadorlik jamiyatining debitorlik qarzdorligi o‘shish sur‘atining 1 foizga ortishi, korxonaning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘shish sur‘atining 0,27 foizga, pul mablag‘larining 1 foizga ortishi, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘shish sur‘atining 0,20 foizga ortishiga olib kelishi aniqlanib, ushbu prognoz ko‘rsatkichlari korxonaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash to‘g‘risida boshqaruv qarorlarini to‘g‘ri va aniq qabul qilish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e‘tirof etgan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 3 tasi impakt faktorli xorijiy ilmiy jurnallarda hamda 7 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 138 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning nazariy-huquqiy asoslari amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy va nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan va ularning amaliy ahamiyatiga baho berilgan. Xususan, sanoat korxonalarini faoliyatiga boshqaruv tizimini isloh qilish va tarif siyosatini takomillashtirish soha korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, ular o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarni yaxshilash bo‘yicha shoshilinch choralar ko‘rilishi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligi keltirib o‘tilgan. Jahon amaliyotida korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgani holda ularda rivojlangan mamlakatlar amaliyotida bo‘lganidek, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Tadqiqotlar korxonalarining yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy barqarorlikni venchur fondlari orqali takomillashtirish va raqobatbardosh bozorini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda korxonalarda moliyaviy barqarorlikni oshirish bo‘yicha uchrayotgan muammolarni o‘rganish hamda ularni hal etishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Korxonalarda amalga oshirilayotgan loyihalarni yanada isloh qilish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or xorij tajribalarini joriy etish orqali korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan masalalarni tadqiq etish lozim.

Tadqiqotda ko‘rib chiqiladigan “moliyaviy barqarorlik” tushunchasini ilmiy-nazariy asoslashda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va ta‘riflar berilgan. Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda “moliyaviy barqarorlik” tushunchasi mazmun-mohiyatining turlicha talqinlari uchraydi. Ularni chuqur va keng tadqiq etgan holda, moliyaviy barqarorlik mazmuniga berilgan quyidagi iqtisodchi olimlarning ta‘riflariga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Muallifning fikricha “Moliyaviy barqarorlik bu - korxonalar moliyaviy holatining barqarorligi, o‘z va qarz mablag‘lari o‘rtasida doimiy muvozanatni saqlash orqali muvaffaqiyatli ishlash va rivojlanish qobiliyatidir” deb ta‘rif keltirib o‘tgan.


Moliyaviy barqarorlikni baholashning maqsadlaridan biri korxonaning o'z majburiyatlarini qoplash va uzoq vaqt davomida korxonaga egalik huquqini saqlab qolish qobiliyatini baholashdir. Shu bilan birga, u quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak:

korxonaning moliyaviy barqarorligini obyektiv baholash;

korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash;

korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan zarur boshqaruv yechimlarini taklif qilish.

Moliyaviy barqarorlik moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi har bir tomon uchun jiddiy ahamiyatga ega. Ushbu faoliyatning ahamiyati 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashning ahamiyati⁶

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun quyidagilar zarur:

1. Investitsiyalar natijalarini baholash. Investitsiyalarni qayta baholash orqali o'z mablag'larini ko'paytirish, ya'ni korxonaning turli loyihalariga investitsiyalar samaradorligini nazorat qilish. Natijada, bu nafaqat moliyaviy barqarorlikni oshirish

⁶ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida msallif tomonidan tuzildi.

muammosini hal qilishga yordam beradi, balki korxonaning asosiy biznesidan olinadigan daromadni ham oshiradi.

2. Ratsional foydani boshqarish. Maqsad – o‘z manfaati uchun emas, balki faoliyatni rivojlantirish uchun aylanma mablag‘larni ko‘paytirish.

3. Korxonaning barqaror o‘shirishini ta‘minlash uchun kreditlarni cheklash va kerakli davrda o‘z majburiyatlarini to‘lay olmaslikdan saqlanish kerak.

Doimiy o‘zgaruvchan muhitda moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun korxonaga strategiyaga ega bo‘lishi kerak. Ko‘pincha korxonaga va uni boshqarishning moliyaviy barqarorligini oshirish muammolari ushbu strategiyalarning yo‘qligi bilan bog‘liq bo‘lib, buning natijasida korxonaga o‘z resurslarini malakali boshqara olmaydi va pul oqimlaridan samarali foydalana olmaydi. Shunday qilib, moliyaviy barqarorlik korxonaga rivojlanishidagi dastak bo‘lib, uning yordamida korxonaga muammo va vazifalarni yanada rivojlantirish uchun yechim topishi, shuningdek, korxonaga barqarorligining yomonlashish xavfini kamaytirishi mumkin. Natijada korxonalarda qarzi mablag‘larining optimal miqdoriga erishish va ulardan samarali foydalanish orqali kapital tarkibini optimallashtirish muammosini hal qilishga harakat qilinmoqda.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotni transformasiyalash jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning hozirgi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotidagi sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash holati tahlili. Hozirgi kunda mamlakatimizda sanoat korxonalariga barqarorligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichidir. Agar korxonada daromadlar xarajatlardan ortsa, moliyaviy barqarorlikka erishishi mumkin. Agar korxonaga mablag‘larni erkin tasarruf eta olsa, ulardan samarali foydalansa, doimiy ishlab chiqarish va sotishning mukammal davriy aylanish uzluksizligi ta‘minlansa, bunday korxonani moliyaviy barqaror deyish mumkin.


Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda mutlaq ko‘rsatkichlar: o‘z va qarzi kapitali, aktivlar, pul mablag‘lari, debitorlik va kreditorlik qarzlari, foyda, shuningdek hisobot asosida hisoblangan ko‘rsatkichlar, masalan, sof aktivlar, o‘z aylanma mablag‘lari, daromad ko‘rsatkichlari, o‘z aylanma mablag‘lari zaxiralari mavjudligi, barqaror majburiyatlar qiymatidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Korxonaga faoliyatining moliyaviy barqarorligini baholash aktivlarning likvidlik darajasini, majburiyatlarni tegishli tushumlar yoki boshqa vositalar bilan qoplash qobiliyati, korxonaning to‘lov qobiliyatining to‘liq darajasi, zaxira va xarajatlarni manbalari bilan ta‘minlanishini aniqlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik darajasini baholashda ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyat samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega emas, ularning asosiylari foyda va rentabellik darajasi hisoblanadi. Sanoat korxonalariga moliyaviy barqarorligining uslubiy qismlari 2-rasmda ko‘rsatilgan.

Moliyaviy holatning barqarorligi korxonaga faoliyatining barqarorlik darajasini ta‘minlash imkonini beradi. Bu ko‘rsatkich bir qator omillarga, birinchi navbatda, korxonaga resurslaridan foydalanish mavjudligi va samaradorligiga bog‘liq: moddiy, mehnat va pul. Moddiy va pul resurslarining oqilona kombinatsiyasi korxonani

rivojlantirish byudjetini ishlab chiqish va bajarish imkonini beradi. Bu omil foyda va kapital hajmi o‘shishiga yordam beradi.

To‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlik o‘zaro bog‘liq toifalardir. Moliyaviy barqarorlikni aniqlashga uslubiy yondashuvlarni hisobga olgan holda ta’kidlash kerakki, to‘lov qobiliyati yuqori bo‘lgan korxonalar moliyaviy barqaror va aksincha, to‘lovga layoqatsiz tadbirkorlik subyektlari oxir-oqibat bankrotlik bo‘lag‘asiga kelib qolishlari mumkin.




2-rasm. Korxonaning moliyaviy barqarorligining uslubiy yo‘nalishlari⁷

Dissertatsiya tadqiqotida moliyaviy risklar kompleks tarzda dekompozitsiyalash orqali asoslanuvchi omillarning bunday guruhlanishi faqat korxonaning ichki muhiti omillariga nisbatan qo‘llaniladi. Uning amalga oshirilishi moliyaviy barqarorlik tizimiga ta’siri nuqtai nazaridan korxonaning eng riskli biznes jarayonlari va faoliyatini aniqlash imkonini beradi. Dekompozitsiyalash butunning tarkibiy qismlarga tasniflanishidir. Bu holda tasniflashning hissasi omillar guruhlari nomlarini ifodalash emas, balki ushbu guruhlarni ajratish chegaralari va mezonlarini belgilashdir. Dissertatsiya tadqiqotlari mavzusiga asoslanib, korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillarning tarkibini aniqlash alohida qiziqish uyg‘otadi. Talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga qaratilgan loyihalarning marketing tadqiqotlari, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, xorijiy mutaxassislar jalb etish, ishlab chiqariluvchi mahsulotlarni sertifikatlash bilan bog‘liq xarajatlarning bir qismini Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish istiqbollari to‘g‘risida xulosalar

⁷Muallif tomonidan tuzildi.

chiqarish mumkin. Moliyaviy barqarorlikning tarkibiy asosi uning 3 ta muhim tarkibiy qismlari yig'indisini tashkil etadi (3-rasm). Bular: moliyaviy barqarorlik, moliyaviy moslashuvchanlik, korxonaning moliyaviy salohiyati.



3-rasm. Moliyaviy barqarorlik, uning tarkibiy qismlari va namoyon bo'lish belgilari o'rtasidagi munosabatlar modeli⁸


Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda korxonalarining moliyaviy barqarorligi bank hisobvaraqlarida zarur miqdordagi mablag'larning doimiy mavjudligi, muddati o'tgan kreditlar, kreditlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari yo'qligi, joriy aktivlarning optimal hajmi va tuzilishi, ular aylanmasining tezlashishi, yetarli kapital va undan samarali foydalanish, ishlab chiqarishning ritmik rivojlanishi, aylanma mablag'lar, foyda hajmi oshishi, rentabellik oshishi ta'sir ko'rsatishini kuzatish mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida korxonalarni istalgan vaqtda qarzlarni zudlik bilan to'lash imkoniyatini berishga majbur qiladi. Shu munosabat bilan korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash birinchi navbatda uning to'lov qobiliyati yordamida amalga oshiriladi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillari yuzasidan risklarni kompleks dekompozitsiyalash uchun taklif qilingan qo'shimchalar korxonaning tashqi va ichki muhiti omillarini nazorat qilish sifatini yaxshilash; ular tavsifining bir nechta parametrlarini birlashtirish, ayniqsa, korxonaning moliyaviy risklari kompleks tarzda dekompozitsiyalanib, yangi moliyaviy boshqarish tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu munosabat bilan sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini risklarni kompleks dekompozitsiyalash asosida boshqarish tizimiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarning tasnifi ishlab chiqildi (4-rasm).

Korxonalar moliyaviy holatini tashxislash va uni sog'lomlashtirishning aniq chora-tadbirlarini ko'rish aslida makroko'lamdagi barqarorlikni ta'minlashning ham muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, yuzaga kelgan holatda e'tiborni, birinchi

⁸Muallif tomonidan tuzildi.

navbatda korxonalarni moliyaviy sogʻlomlashtirish va ularning kelgusida barqaror rivojlanishini taʼminlashga qaratish lozim. Ishlab chiqarish rentabelligi uning moliyaviy barqarorligi, qanchalik foydali ekanligi va unga sarmoya kiritishga arziy yoki arziyasligini aks ettiradi.



**Ɖslatma. Yulduzcha bilan belgilangan pozitsiyalar muallif tomonidan taklif qilingan.*

4-rasm. Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligiga taʼsir koʻrsatuvchi ichki va tashqi omillar risklarining kompleks dekompozitsiyalangan tasnifi⁹

Har bir korxonaning muhim koʻrsatkichi mutlaq likvidlik koeffitsiyenti boʻlib, uning yordamida korxonaning toʻlov qobiliyatini hisoblash va uning faoliyati haqida prognoz qilish mumkin. Likvidlik koʻrsatkichi korxonaning toʻlov qobiliyatini bevosita aks ettiradi va qoida tariqasida kredit berishdan oldin banklarda unga eʼtibor beriladi. Ushbu parametr boshqa holatlarda, masalan, aksiyalarni investisiya qilish va sotib olish, shuningdek, hamkorlik uchun sheriklarni tanlashda ham muhimdir (har bir korxonada tovar va xizmatlarni oldindan toʻlovsiz oʻz vaqtida yetkazib bera oluvchi likvid biznes bilan ishlashdan manfaatdor).

Yuqorilagi tahlillarni eʼtiborga olgan holda davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarining asosiy faoliyat ixtisosligiga muvofiq boʻlmagan va foydalanilmayotgan aktivlarni tegishli davlat mulkini boshqarish idoralari tasarrufiga oʻtkazish orqali korxonalar ustav kapitalidagi davlat hamda xoʻjalik jamiyatlari ulushini kamaytirish asosida moliyaviy barqarorligini oshirishga imkon berishini kuzatish mumkin.

Koʻrsatkich olingan foyda miqdorini uni olishga imkon bergan mablagʻlar miqdori bilan oʻzaro bogʻlaydi. Umuman, bu sof foydaning asosiy vositalar va aylanma mablagʻlar qiymatiga nisbatidir. Agar korxonada bir nechta ishlab chiqarish boʻlsa, unda har birining rentabelligi alohida hisoblanadi. Agar uning darajasi yetarlicha yuqori boʻlmasa, ishlab chiqarish tannarxi kamaytirilsa, uni oshirish mumkin, asosiy resurslarni sarflashga oqilona yondashish lozim.

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Moliyaviy barqarorlikning ko'pgina koeffitsiyentlari tahlilidan kelib chiqqan holda va korxonalar moliyaviy holatini kengroq aks ettirish maqsadida mutlaq ko'rsatkichlarga qo'shimcha sifatida korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash quyidagi koeffitsiyentlar asosida tahlil qilinadi. Moliyaviy barqarorlik balansdagi ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Undagi ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslab, mablag'lar o'rtasidagi nisbat va o'zaro bog'lanish aniqlanadi.

Yuqoridagi holatlarga tayangan holda, mahalliy yetuk iqtisodchi olim A.U. Burxanovning "Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot" nomli monografiyasida 9 ta moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentining o'zaro bog'liqlik jihatlari tahlil qilingan bo'lib¹⁰, muallif tadqiqot davomida bu koeffitsiyentlarga tayanib, ularga 3 ta moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentini qo'shgan holda ko'rib chiqqan va sanoati korxonalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi koeffitsiyentlarni belgilagan (1-jadval).

1-jadval

Korxonalarining moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari tasnifi¹¹

Koeffitsiyentlar nomi	Hisoblanishi	Me'yor darajasi
Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti	Pul mablag'lari + Qisqa muddatli qo'yilmalar / Qisqa muddatli majburiyatlar	0,2 dan yuqori (optimal daraja 0,2-0,35)
To'lov qobiliyati (joriy likvidlilik) koeffitsiyenti	Joriy aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	min 1,25
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	O'z mablag'lar manbalari / Balans aktivi bo'yicha jami	0,5 dan yuqori, (optimal daraja 0,65-0,75)
O'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti	O'z mablag'lar manbalari / Qisqa muddatli majburiyatlar	1 dan yuqori
O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	Joriy aktivlar / O'z mablag'lar manbalari	0,1 dan yuqori
Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	Mahsulotlarni sotishdan sof tushum / Debitorlar	Max
Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	Mahsulotlarni sotishdan sof tushum / Kreditorlik qarzlari	Max
Balans foyda me'yori koeffitsiyenti	Mahsulotlarni sotishning yalpifoydasi / Mahsulot sotishdan sof tushum	Max
Sof foyda me'yori koeffitsiyenti	Sof foyda / Mahsulot sotishdan sof tushum	Max
Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti	Uzoq muddatli aktivlar + O'z kapitali / Jami kapital	0,6 – 0,9
Kapitallashuv koeffitsiyenti	Uzoq muddatli majburiyatlar + qisqa muddatli majburiyatlar / o'z kapitali	1 – 1,5
Qisqa muddatli qarz nisbati koeffitsiyenti	Qisqa muddatli majburiyatlar / Jami majburiyatlar	0,5 – 0,7

2-jadvalda keltirilgan moliyaviy barqarorlikning mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari orqali kimyo sanoati korxonalarini moliyaviy barqarorligini oqilona baholash va ular korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, uni oshirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq

¹⁰ Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: "Innovatsion rivojlanish" nashriyot-matbaa uyi, 2019. - 160 b.

¹¹ O'sha manba.

etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy holatda to'g'ri investisiya qarorini qabul qilish uchun bitta koeffitsiyent yetarli daraja emas, tahlilda bir nechta ko'rsatkichlardan foydalanish kerak. Shu sababi quyida mamlakatimizdagi yirik sanoat korxonalarining moliyaviy- iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlarining solishtirma tahlili ishlab chiqildi.

2-jadval

Sanoat korxonalari moliyaviy-iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili (foizda)¹²

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2022-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
		2018	2019	2020	2021	2022	
“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati							
	Ustav kapitalining rentabellik koeffitsiyenti (K>1)	3,12	3,97	3,97	6,13	3,6	0,48
	Umumiy to'lovga layoqatlilikni qoplash koeffitsiyenti (K>0,2)	7,65	3,64	3,64	1,84	1,5	-6,15
	Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti 0,2 dan yuqori (optimal daraja 0,02- 0,35)	0,08	1,57	1,57	0,38	0,4	0,32
	O'z mablag'larining jalb qilingan mablag'lariga nisbati koeffitsiyenti (1dan yuqori)	8,97	4,66	4,66	3,54	2,5	-6,47
“Surxondaryo don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati							
	Ustav kapitalining rentabellik koeffitsiyenti (K>1)	0,75	1,51	1,35	0,21	0,45	-0,3
	Umumiy to'lovga layoqatlilikni qoplash koeffitsiyenti (K>0,2)	0,86	0,86	0,72	0,19	1,01	0,15
	Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti 0,2 dan yuqori (optimal daraja 0,02- 0,35)	0,26	0,26	0,15	0,02	0,03	-0,23
	O'z mablag'larining jalb qilingan mablag'lariga nisbati koeffitsiyenti (1dan yuqori)	2,2	2,2	11,1	1,02	1,9	-0,3
“O'zbekko'mir” aksiyadorlik jamiyati							
	Ustav kapitalining rentabellik koeffitsiyenti (K>1)	0,13	1,99	1,45	1,60	0,11	-0,023
	Umumiy to'lovga layoqatlilikni qoplash koeffitsiyenti (K>0,2)	2,62	2,5	2,4	1,80	1,60	-1,02
	Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti 0,2 dan yuqori (optimal daraja 0,02- 0,35)	0,04	0,14	0,12	0,09	0,01	-0,03
	O'z mablag'larining jalb qilingan mablag'lariga nisbati koeffitsiyenti (1dan yuqori)	1,89	2,20	2,12	2,20	1,95	0,06
“O'zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati							
	Ustav kapitalining rentabellik koeffitsiyenti (K>1)	0,04	0,04	0,03	0,08	0,15	0,11
	Umumiy to'lovga layoqatlilikni qoplash koeffitsiyenti (K>0,2)	2,6	2,6	2,6	1,79	1,71	-0,89
	Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti 0,2 dan yuqori (optimal daraja 0,02- 0,35)	0,04	0,04	0,01	0,83	0,3	0,26
	O'z mablag'larining jalb qilingan mablag'lariga nisbati koeffitsiyenti (1dan yuqori)	0,01	0,01	1,5	4,51	0,3	0,29
“Sharg'unko'mir” aksiyadorlik jamiyati							
	Ustav kapitalining rentabellik koeffitsiyenti (K>1)	0,97	1,66	0,38	0,02	0,64	-0,33
	Umumiy to'lovga layoqatlilikni qoplash koeffitsiyenti (K>0,2)	1,8	0,97	1,39	1,71	1,13	-0,67
	Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti 0,2 dan yuqori (optimal daraja 0,02- 0,35)	0,02	0,06	0,08	0,01	0,0005	-0,0195
	O'z mablag'larining jalb qilingan mablag'lariga nisbati koeffitsiyenti (1dan yuqori)	4,39	7,86	0,75	14,2	12,7	8,31

¹² <https://openinfo.uz/sayti> ma'lumotlaridan foydalangan holda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Sharg'uniko'mir" aksiyadorlik jamiyatida 2022-yilda 2018-yilga nisbatan ustav kapitalining rentabellik koeffitsiyenti 0,33 foizga kamaygan. Umumiy to'lovga layoqatlilikni qoplash koeffitsiyenti esa 0,67 foizga kamaygan. O'z mablag'larining jalb qilingan mablag'lariga nisbati koeffitsiyenti 8,31 foizga ko'payganligini kuzatish mumkin. Korxonaning mutlaq likvidlik koeffitsiyenti 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 0,0195 foizga kamayganligi salbiy holat hisoblanadi. Umuman, korxonada mutlaq likvidlik koeffitsiyentini oshirish uchun aktivlarning sifati qancha yaxshilansa, korxonaning likvidligi shuncha yuqori bo'ladi, shuning uchun qarz mablag'lari miqdorini kamaytirish yoki aylanma mablag'larni ko'paytirish hamda debitorlik qarzlarini kamaytirish zarur. Ikkinchi holatda, qarzdorlar bilan sessiya shartnomasini tuzish orqali majburiyatlarni uchinchi shaxsga o'tkazish mumkin.

Sanoat korxonalarida resurslar sarf-xarajatlarini differensiasiyalash orqali uning moliyaviy barqarorligini oshirish hamda kelajakda korxonada qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishi uchun balansning mutlaq likvidlik koeffitsiyentini to'g'ri tahlil qilish hamda korxonaning resurslar sarf-xarajatlarini differensiasiyalash orqali "Sharg'uniko'mir" aksiyadorlik jamiyatining sof foydasi 2020-yilda 107605,0 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil yakunlariga ko'ra 4523105,0 mln. so'mni tashkil etgan yoki 4415500 mln. so'mga oshishiga erishilgan.

Agar korxonaning naqd pul nisbati 0,5 dan ortiq bo'lsa, bu korxonada joriy aktivlarning mantiqsiz tuzilishi, biznesni rivojlantirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan mablag'lar ulushiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ko'pincha korxonada mutlaq likvidlik koeffitsiyentining ma'yoriy qiymati 0,2 ni tashkil qiladi, ya'ni korxonada 20 oygacha bo'lgan majburiyatlarning 12 foizini naqd pul va uning ekvivalentlari hisobiga to'liq qoplay oladi. Agar korxonaning mutlaq likvidlik koeffitsiyenti 0,2 dan kam bo'lsa, bu korxonada "tezkor" likvidlik yetarli emasligini ko'rsatadi, ammo bu korxonada muammolar mavjudligini anglatmaydi. Differensiasiyalash tasnifi korxonaning resurs salohiyati holatiga ularning ahamiyati darajasi bo'yicha ta'sirlarni farqlash vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Moliyaviy holat korxonaning iqtisodiy faoliyatining eng muhim xususiyatidir. U korxonaning raqobatbardoshligini, uning biznes hamkorligidagi salohiyatini belgilaydi, korxonada va uning moliyaviy munosabatlardagi sheriklarining iqtisodiy manfaatlari qay darajada kafolatlanganligini baholaydi. Korxonaning moliyaviy holatini aniqlash uchun to'lovga layoqatlilik, moliyaviy barqarorlik, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini tavsiflovchi koeffitsiyentlar hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarni hisoblab chiqqach, hisoblangan moliyaviy ko'rsatkich qonun bilan tasdiqlangan normativ qiymat bilan taqqoslanadi yoki korxonaning o'zida ijro etish uchun qabul qilingan mavjud usullarida tahlil qilinadi.

Agar individual ko'rsatkich qiymati bunday ishonch doirasidan tashqarida bo'lsa, korxonaning moliyaviy holati yomon deb taxmin qilinadi. Shunday qilib, turli xil moliyaviy koeffitsiyentlarning standartlari tasniflash modellari bo'lib, ularning qo'llanilishi va aniqligini baholash mumkin.

Mamlakatimizdagi kimyo sanoati korxonalaridan biri bo'lgan, "Sharg'uniko'mir" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 17-apreldagi "2003-2004-yillarda korxonalarni davlat

tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi 185-sonli qaroriga va Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2003-yil 26-dekabrda 622-sonli buyrug‘iga asosan tashkil etilgan. Moliyaviy barqarorlikni baholashning yuqoridagi ko‘rsatkichlarga tayangan holda “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorlik darajasiga baho berish mumkin.

Olib borilgan tahlillar sifatini oshirish korxonada moliyaviy barqarorligining nisbiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilishni talab etadi. Ma’lumki, tadqiqot metodologiyasida moliyaviy barqarorlikning nisbiy ko‘rsatkichlarini 12 ta koeffitsiyent bilan chegaralash taklif etilgan. Bu koeffitsiyentlar asosida “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish mumkin.

3-jadval


“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini tahlili¹³

Koeffitsiyentlar nomi	Yillar					2022 yilda 2018 yilga nisbatan o‘zgarishi, (+,-)
	2018	2019	2020	2021	2022	
Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti	0,023	0,06	0,078	0,008	0,0005	-0,0225
To‘lov qobiliyati (joriy likvidlilik) koeffitsiyenti	1,8	0,92	1,388	1,71	1,132	-0,668
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	0,18	0,09	0,57	0,066	0,073	-0,107
O‘z va qarzi mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti	4,4	7,86	1,33	0,53	0,93	-3,47
O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti	1,8	0,11	0,6	3,25	1,22	-0,58
Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	0,7	3,04	2,3	0,48	1,19	0,49
Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	0,48	0,198	2,4	0,01	0,11	-0,37
Balans foyda me’yori koeffitsiyenti	0,3	0,44	0,28	0,33	0,45	0,15
Sof foyda me’yori koeffitsiyenti	0,34	0,25	0	0,0015	0,048	-0,292
Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti	1,1	2,3	5,8	8,4	10,4	9,3
Kapitallashuv koeffitsiyenti	2,0	2,1	6,0	7,8	9,0	7,0
Qisqa muddatli qarzi nisbati koeffitsiyenti	0,5	0,1	0,04	0,1	0,07	0,02

3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti me’yoriy qiymatdan sezilarli darajada past

¹³ “Sharg‘unko‘mir” AJning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

